
TOSHLOQLIK SPORTCHI JAHON KUBOGINING OLTIN MEDAL SOHIBI BO'LDI

Joriy yilning 22-23 avgust kunlari Qirg'izistonning Cho'lpon-Ota shahrida sambo bo'yicha kattalar o'rtasida jahon kubogi bahslari bo'lib o'tdi.

Ushbu musobaqada dunyoning turli mamlakatlaridan sambochilar 24 ta vazn toifasida sovrinli o'rinlar uchun kurash olib borishdi. E'tiborlisi, bellashuvlarda ishtirok etgan O'zbekiston terma jamoasi a'zolari umumiy hisobda 18 ta (3 ta oltin, 8 ta kumush va 7 ta bronza) medalga ega chiqishdi.

Terma jamoamiz safida sovrindor bo'lgan sportchilarimizdan toshloqlik Sohibjon Hasanboyev 88 kg vazn toifasida oltin medalni qo'lga kiritdi.

Bugun Sohibjon Hasanboyevni tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev, sektor rahbarlari, keng jamoatchilik vakillari hamda mahalla yoshlari tumanimizda tantanali ravishda kutib oldilar.

Tuman hokimi S. Hasanboyevni mamlakatimiz nomidan nufuzli musobaqada sovrindor bo'lganligi bilan samimiy muborakbod etdi. Sportchiga qimmatbaho hamda esdalik sovg'alarni topshirdi.

2023-08-26 10:40:06